



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2173-3
2026 - yil 28 - Fevral

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK VAZIRINING
BUYRUG'I

“Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me‘yorlarini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruq, shuningdek unga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ–2699-son “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-iyuldagi 465-son “Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir
23-Fevral 2026-yil
34-2025/B- son



ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

Kelishildi:

Vazir
02-Fevral 2026-yil



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Вазир
30-Январ 2026-йил



XIDOYATOV SHERZOD
SAIDJANOVICH

Rais
09-Январ 2026-йил



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 3-dekabrda 193-Q-son "Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2173, 2010-yil 28-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 52-son, 527-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 5-iyulda 39-B-son "Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2173-1, 2011-yil 29-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 31-son, 330-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 28-dekabrda 76-B-son "Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 2173-2, 2013-yil 28-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 5-son, 58-modda).